

BUXORO XONLIGI DAVRIDA SHE`RIYATNING IJTIMOIIY MA`NAVIY O`RNI

Ma`rufov Sherzod Komil o`g`li

Tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori, (PhD)

GulDU "Tarix" kafedrasi o`qituvchisi,

sherzodmarufov1@gmail.com

Abdullayeva Shahnoza Komil qizi

Guliston Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi

shahnozaabdullayeva75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligi davrida she`riyatning jamiyat hayotidagi o`rni, uning ijtimoiy ma`naviy ahamiyati tahlil qilingan. Asarda osha davr shoirlarining ijodiy faoliyati, ularning asarlari orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarlari va milliy o`zlikni anglash jarayoniga ko`rsatgan ta`siri yoritilgan. Maqolada she`riyatning nafaqat badiiy hodisa, balki ma`naviy tarbiya vositasi sifatidagi roli ochib berilgan. Shuningdek bu davr adabiy merosining hozirgi zamon madaniy hayotidagi ahamiyati va yosh avlodni ma`naviy kamolotga yetaklashdagi o`rni ham tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: Nasr, nazm, klassik uslub, tasavvufiy, sufiylik, aruz, qasida, masnavi, ruboiy, tuyuq.

Annotation: This article analyzes the role of poetry in the social life of society during the period of the Bukhara Khanate, as well as its social and spiritual significance. The study highlights the creative activities of poets of that era and examines how their works influenced the people's worldview, moral values, and the process of developing national identity. The article reveals the role of poetry not only as an artistic phenomenon but also as a means of moral and spiritual education. Furthermore, it analyzes the importance of the literary heritage of this period in contemporary cultural life and its role in guiding the younger generation toward spiritual maturity.

Keywords: prose, poetry, classical style, mystical, Sufism, aruz meter, qasida, masnavi, rubai, tuyugh.

Buxoro xonligi davri o`zbek adabiyoti tarixida muhim o`rin tutadi. Bu davrda she`riyat nafaqat san`at asari sifatida, balki ijtimoiy manaviy hayotni shakllantirish vositasi sifatidam rivojlangan. Buxoro xonligi she`riyatining o`ziga xosligi uning mavzulari, janrlari, uslubi va xalq bilan aloqasida namoyon bo`ladi.

O`tmishda sharq mamlakatlari hukmdorlari huzurida she`riyat kechalari tashkil etilgan bo`lib, tarixiy manbalarda bunday adabiy yig`inlar oliy majlislar deb tilga olingan. Bu haqda adabiyotshunos Yoqubjon Is`hoqov "So`z san`ati so`zlig`"

kitobida shunday yozgan; "Qadimdan yaqin va o`rta sharq mamlakatlarida turli hukmdorlar huzurida yoki anjumanlarda she`rxonlik majlislarini tashkil etish an`anaga aylangan ". Hukmdorlar huzurida o`tkazilgan bunday majlislar bir tomondan saroy adabiyotining gullab yashnashiga, iste`dodli shoirlarning shakllanishi va tanilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan esa adabiy majlislar ishtirokchilari bo`lmish olimu fozillar, shoirlar, badiiyat sohiblari ham mamlakat ham g`amxo`r xon shuhratini yetti iqlimaro yoyilishiga va nomining abadiyatga muhrlanishiga hissa qo`shgan .

Buxoro xonligi davrida (XVI-XIX asrlar oralig`i) she`riyat juda rivojlangan bo`lib, unda turli she`riy uslublar shakllangan. Xususan;

Klassik (an`anaviy) uslub- Bu uslub Alisher Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, kabi shoirlar an`analariga asoslangan. Bu uslubda she`rlar aruz vaznida yozilgan bo`lib, asosiy janrlari; g`azal, qasida, masnaviy, ruboiy, tuyuq. Bu yo`nalishda Sayido Nasafiy, Mujrim Obid, Mirza Abulqodir Bedil, Turdi Farog`iy kabi shoirlar ijod qilgan.

Tasavvufiy (ma`naviy- ruhiy) uslub- Buxoro davrida sufiylik g`oyalari keng yoyilgan bo`lib, she`riyatda bu ruh yaqol seziladi. Bu uslubda shoirlar ishqni ilohiy haqiqatga yetishishyo`li sifatida talqin qilgan. Timsollari; may, jom, yor, ro`za, ishq-barchasi majoziy ma`noda ishlatilgan. Bu yo`nalishda Bedil, So`fi Olloyor, Mushrif, Mulla Vali, Xo`ja Samandar Termiziy kabi shoirlar ijod qilganlar.

Ma`rifatparvar (ijtimoiy-ma`naviy) uslub-XIX asrdan boshlab rivojlangan uslub bo`lib, bunda xa`lqning hayoti, adolat, ilm, ma`rifat mvzulariga ko`proq e`tibor bera boshlagan. Bu uslubda Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Hofiz Tanish, Mirza Abdullaziz kabi ijodkorlar yozgan.

Temuriylar davridagi mashhur vakillar Safaviylar sulolasi hukmdori Ismoilshoh yoki Bobur huzuriga muhojir bo`lib ketdilar. Shayboniylar qoshida Binoiy, Muhammad Solih kabi temuriylar davrida tan olinmagan shoirlar qoldi.

Shayboniyxonning o`zi ham ilm kishisi, shoir bo`lgan . Uning xatto safarda olib yuradigan ko`chma kutubxonasi bolib, yurishlar vaqtida ham muntazam shoir va olimlar yig`inini uyushtirgan.

Qudratli shayboniyxonlardan bo`lmish Abdullaxon ham atrofida yozuvchi, shoir va olimlarni yig`ib, ularga homiylik ko`rsatdi va ular ishtirokida adabiy yig`inlar tashkil etdi. Saroyning istedadli shoirlari ichida ayniqsa Mushfiqiy o`z madhiyalari, lirik she`r va hajviyalari bilan shuhrat qozondi. Mushfiqiy Abdullaxonning topshirig`i bilan turli binolar uchun tarixlar bitgan. Saroy tarixchilaridan Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" nomli katta tarixiy asar yozgan. XVI asr ikkinchi yarmida tuzulgan Buxoro shariyati antologiyasi muallifi o`z asarida fan va adabiyotga aloqador 250kishi nomini sanab o`tgan. Ular orasida yetuk shoirlar Hofiz Ubahiy va Zayniddin Vosifiy, humdorlardan Ubaydulloxon, Abdullativ , Abdulaziz kabilar e`tiborga loyiqdir.

E'tiborlisi shundaki, bu davrda ijod qilgan shaxslarda shayxlik xislatlari va qozilik amallari bilan birga nazmga rag'bat va oshuftalik kuchli edi. Natijada ular tomonidan ko'plab she'riy misralar, g'azallar yozilib, adabiy muhitning jozibador namunasi bizgacha yetib keldi.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida adabiyot, she'riyat fors va o'zbek (ko'proq xivada) tillarida rivojlandi.

Nasr va nazmdagi tarixiy asarlar juda balandparvoz hamda jimjimador yozilgan, she'riyat kechalarida podshoh va xonlar ular atrofidagi a'yonlarga hamdu sanolar qilgan. Subxonqulixon Nishotiy taxallusi bilan she'rlar yozgan, o'z atrofiga shoir va olimlarni yig'ib, adabiy majlislar uyushtirgan. Subhonqulixon davrida Muhammad Vali Samarqandiy "Muzakkirul as'hob" majmuasini tuzdi, bu tazkirada 200 nafar o'sha davrning adabiyot arboblari tarjimai xoliga oid ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari Buxoroda saroy shoiri Muhammad Balxiyning 500 baytdan iborat "Subhonqulixonoma" va Mirmuhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" kabi asarlar yaratildi.

Albatta, biz barcha podshohlar adolatli bo'lgan va adabiyot rivojiga hissa qo'shgan, deb ayta olmaymiz. Xorazmshoh Otsiz tomonidan adib Sobir Termiziynin g Amudaryo bo'yniga tosh bog'lab choktirishi, Subhonqulixon tomonidan Turdi Farog'iyning tahqir etilishi, Mahmud Qatog'on buyrug'iga binoan Mashrab dorga osilinishi, Nasrulloxon jallodlari tomonidan Nodiraning so'yilib, Hoziqning boshi tanasidan judo etilishi, bularning hammasi tariximizdagi qora dog'lardir.

Buxoro xonligi davrida yuzaga kelgan she'riyat o'z davrining ijtimoiy ma'naviy hayotida beqiyos o'rin tutgan. Shoirlar xalqning orzu-umidlari, dard-u hasratlari, vatanparvarlik va insoniy g'oyalarini badiiy so'z orqali ifoda etib, milliy tafakkur va ma'naviyatni boyitganlar. Bu davr adabiyoti nafaqat o'z zamonida, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Zamonaviy davrda ham Buxoro xonligi davri she'riyati bizni o'z tariximiz, milliy qadriyatlarimiz so'z san'atining qudratini qadrlashga chorlaydi. U orqali biz o'zlikni anglaymiz, ma'naviy me'rosimizni asrab-avaylab, yangi avlodlarga yetkazish zarurligini his qilamiz. Shu bois, o'sha davr shoirlarining ijodi bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida, ma'naviy yuksalishda va milliy g'ururni mustahkamlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 343-349).

2. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 343-349).

3. Komil o'g, M. R. S., Hoshimjon o'g'li, R. I., Mamatkarimovna, A. Z., & Vildanovich, G. S. (2025, May). GERMANIYA IMPERIYASI 1870–1918 YILLARDAGI KOLONIAL REJALARIDA MARKAZIY OSIYONING O 'RNI. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 31, pp. 277-280).

4. Komil o'g, M. R. S., & Eshmurza o'g'li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(51), 620-623.

5. Komil o'g, M. R. S., & G'ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(4), 172-181.

6. Komil o'g, M. R. S., & G'ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(4), 172-181.

7. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA'RUF OV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 160-165.

8. MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. ACTA NUUz, 1(1.2), 1.

9. Ma'rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O'RTA OSIYODA MUSIQA SAN'ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

10. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).

11. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 6(01), 4-7.

12. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. PEDAGOG, 7(11), 68-72.

13. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 4(2), 1-6.

14. Ma'rufov, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

15. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 293-296).

16. Gulchehra, A., Alisher, A., & Sherzod, M. R. (2025). G'ARBIY TURK XOQONLIGI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 477-487.

17. Sherzod, M. R., Gulchehra, A., & Alisher, A. (2025). ARXEOLOGIYA FANINING YO'NALISHLARI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 467-476.

18. Alisher, A., Gulchehra, A., & Sherzod, M. R. (2025). SUV OSTI ARXEOLOGIYASI TADQIQOTINING ISTIQBOLLARI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 456-466.